

o'quv reja va fan dasturlarining barcha talablarini bajargan o'quvchi texnikum Pedagogik kengashining qarori va direktorning buyrug'i bilan Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonlariga qo'yiladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi belgilangan qonunchilik hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi;

Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi qarori bilan ta'lim olgan mutaxassisligi (kasbi) va egallagan malakasi (malakalari) ko'rsatilgan holda davlat namunasidagi diplom beriladi;

Diplomga butun o'qish davrida o'zlashtirilgan fan (modul)lar ro'yxati, o'tilgan soatlar hajmi, ularni o'zlashtirish darajasi (baholar) va Yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari ko'rsatilgan qo'shimcha varaq ilova qilinadi;

texnikumni tamomlaganlik to'g'risidagi davlat namunasidagi diplom mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beradi;

Texnikumda umumta'lim maktablari 9-sinf bitiruvchilari negizida shakllantirilgan guruh bitiruvchilariga ta'limni keyingi bosqichini va/yoki mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan boshlang'ich kasbiy ta'lim darajasidagi davlat namunasidagi diplom va unga ilova beriladi.

texnikumda o'qituvchilarning o'quv-metodik va ilmiy ijod qilishlari uchun sharoit yaratiladi va rag'batlantiriladi.

22. Texnikumda ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar umumbashariy qadriyatlarga va milliy an'analarga asoslanadi.

Texnikumda:

vatanparvarlik va milliy mustaqillik g'oyalariga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishga qodir shaxsni tarbiyalash o'quv jarayoni bilan uzviy ravishda oila, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa jamoat tashkilotlari ishtirokida amalga oshiriladi;

yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy-madaniy, tarixiy an'analarga, urf-odatlariga asoslangan tarbiyaviy ishlarning turli shakllarini ommalashtirish maqsadida texnikumning veb-sayti va ijtimoiy sahifalarini yaratish yo'lga qo'yiladi;

o'quvchilarning o'z intellektual darajasini oshirishlari uchun badiiy adabiyotlarni o'qishga qiziqtirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targ'ibot va turli xil tanlov ishlarini olib borish yangi adabiy kitoblarning taqdimotini uyushtirish va targ'ib qilish orqali amalga oshiriladi;

Texnikumdagi axborot-resurs markazlarini yangi zamonaviy o'quv jihozlari, yangi o'quv va badiiy adabiyotlar bilan bosqichma-bosqich ta'minlanadi;

Texnikumdagi qo'shma ta'lim dasturlari asosida ochilgan yangi yo'nalishlar bo'yicha axborot-resurs markazlarini zamonaviy xorijiy o'quv adabiyotlar bilan ta'minlanib boriladi;

texnikum o'quvchilarida muloqot madaniyatining zamonaviy shakllarini yaratish maqsadida tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda bahs-munozaralar va davra suhbatlari uyushtiriladi;

chet tillaridagi badiiy adabiyotlar, ilmiy materiallarni o'rganish va ta'lim-tarbiyaga tatbiq etish maqsadida videoroliklar, bukletlar, flayerlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi;